

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



"KONLARDA NEFT VA GAZNI QAZIB OLİSH NAZARIY ASOSLARI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300000 - Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lif sohasi:	310000 - Muhandislik ishi
Magistratura mutaxassislik:	70721801-Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish

Qarshi - 2022 y.

Fan dasturi Qarshi muxandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

N.X.Ermatov – QarMII “Neft va gaz ishi” kafedrasi professori, t.f.d.

M.X.Ashurov – QarMII “Neft va gaz ishi” kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar: P.E.Allakulov – QarMII “Neft va gaz ishi” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Abdulxaev A.A. – “Gissarnefigaz” qo’shma korxonasi neft va gaz qazib olish bo’limi boshlig’i.

Fan/modul kodi KNGQONA 1106	O’quv yili 2022-2023	Semestr(lar) 1	ECT-Skrediti 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O’zbek	Haftalik dars soatilari 6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. KONLARDA NEFT VA GAZNI QAZIB OLISH NAZARIY ASOSLARI	90	90	180
2. Fanning mazmuni	2.1. Fann o’qitish maqsadi va vazifaları Fanni o’qitishdan maqsad – neft va gazning fizik-kimyoiy xossalari, qatlamlarining tabiiy ishlash rejimlari, ishlash sistemalari, neft va gaz konlarini ishlashni modellashtirish; neft va gaz konlarini ishlash ko’rsatkichlarini bashorat qilish va oqilona ishlash variantini tanlash usullari, anomal xossalni neft konarini ishlatish; neft konlarini suv bostirish usullarini qo’llab ishlash, oqilona ishlatish quduqlari to’ri zichligini asoslash; neft va gaz konlarini ishlash texnologik ko’rsatkichlarini iqtisodiy baholash; neftgaz uyumlarini ishlash, ko’p qatlamlari konlarni ishlatish; neft va gaz konlarini ishlash holati taxlili; neft va gaz konlarini ishlash loyiha hujjatlarini tarkibiy qismalari va ularga qo’yiladigan talablar o’rganiladi. Shuningdek qo’yilgan vazifalarga o’qish jarayonida talabalarning ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarda faol ishtirot etishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashlari orqali amalga oshadi.		

Konlarda neft va gazni qazib olish nazariy asoslari fanining vazifasi talabalarni neft va gaz uyumlarini ishlash jarayonlarini fizik asoslari bilan tanishtirish, turli rejimlardagi neft va gaz uyumlarini ishlash jarayonlarini modellashtirish usullarini o’rgatish, ishlash ko’rsatkichlarini gidrodinamik hisoblash usullarini o’zlashtirish bilan bog’liq. Yuqori sifatlari loyihalar – neft va gaz qazib olish korxonalarini katta texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarga erishishi uchun zamin yaratadi. Agar, neft va gaz olish jarayonini ko’p variantliligini va ushbu jarayon ko’rsatkichlariga bir vaqtda ko’plab faktorlarni ta’sir etishini inobatga olsak, loyiha hujjatlarini tuzish sifatini oshirish kerakligi yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, neft olish sanoati eng kapital va energiya sarfini talab etuvchi tarmoqlardan biridir. Shu sababli neft va gaz konini ilmiy asoslangan loyihasini tuzishdan maqsad rejalashtirilgan neft va gaz miqdorini eng kam xarajatlarni sarf etib olishni ta’minlash va neft va gaz zahiralaridan samarali (iloji boricha to’laroq) foydalanishdan iborat. Bu qo’yilgan maqsad neft va gaz konlarini ishlash bilan bog’liq hamma asosida ishlarni ilgaridan mukammal o’ylangan reja - ishlash loyihasi asosida erishish mumkin. Shuningdek ko’p qatlamlari va ishlashning so’ngi davridagi uyumlarini geologik-texnologik nuqtai nazardan ilmiy va samarali ishlatish usullarini o’rgatish.

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida ko’rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “___” dagi “___” – sonli bayonnomma).

2.2. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibi mavzulari:

1-mavzu. Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari.

Fan to'g'risida qisqacha ma'lumot. Uning maqsadi va vazifalari, qo'yilgan vazifalar va ularni bajarish mexanizmlari.

2-mavzu. Neft va neftgaz konlarini ishlash davomida bo'ladigan jarayonlar haqida umumiyl tushuncha.

Neft va gazning yer bag'rida yotish xususiyatlari. Neft qatlamlarini ishlash rejimlari. Qatlamlarni ishlash rejimlarini paydo bo'lishining geologik sharoitlari. Rejimlar samarodorligini taqqoslash.

3-mavzu. Neft konlarini ishlash usullari va texnologiyalari.

Ishlash obyekti va usuli. Ishlash tizimlari haqida tushuncha. Ishlash tizimlarining tasnifi va xususiyatlari. Qatlama ta'sir qilish bo'lmagan ishlash tizimlari.

4-mavzu. Qatlama ta'sir qilish qo'llaniladigan ishlash tizimlari.

Chegara tashqarisiga suv haydaladigan tizimlar. Chegara ichiga suv haydaladigan tizimlar. Quduqlar maydon bo'ylab joylashadigan tizimlar. Ishlash texnologiyasi va ko'rsatgichlari.

5-mavzu. Neft konlarini tabiiy rejimlarda ishlash.

Taranglik rejimini namoyon bo'lishi. Neft konlarini erigan gaz va gaz bosimli rejimlarda ishlash.

6-mavzu. Neft konlarini suv bostirish usullarini qo'llab ishlash.

Neft qazib chiqarishning ikkilamchi usullari. Respublikamizda qatlam bosimini saqlash usullarini qo'llanilish tarixi. Qatlamlarga suv haydash texnika va texnologiyasi. Nefi konlarida qatlam bosimini saqlashda suv ta'minoti.

7-mavzu. Ishlashni asosiy ko'rsatkichlari.

Ishlashni asosiy ko'rsatkichlari. Yillik neft, gaz, kondensat, suv olish, jamg'arma neft, qatlamanidan olingan suvni jamg'arma miqdori, qatlama haydalgan suvning jamg'arma miqdori, joriy neft beraolishlik.

8-mavzu. Anomal xossalni neft konlarini ishlash loyihalashtirish.

Katta chuqurlikda yotgan va anomal katta qatlam bosimli neft uyumlarini ishlash va loyihalashtirish. Anomal-qovushqoq nefli uyumlarni ishlash va loyihalashtirish. Anomal-qovushqoq nefli uyumlarni ishlash xususiyatlari. Anomal neftni tekis-radial sizishini sxemalashtirish.

9-mavzu. Neft konlarini ishga tushirish loyiha hujjalari.

Neft konlarini ishlash bo'yicha loyixaviy hujjalari. Loyihaviy ishlarni bajarilish ketma-ketligi va tarkibi. Konlarni ishlashni loyihalashtirishning

umumiyl tamoyillar. Neft konlarini razvedkasiga qo'yiladigan asosiy talablar. Neft konlarini ishga tushirish loyiha hujjalari umumiyl talablar.

10-mavzu. Neftgaz uyumlarini ishlashni loyihalashtirish.

Neftgaz konlarini tabiiy tarzlarda ishlash. Neftgaz konlarini qatlama ta'sir qilish bilan ishlash.

11-mavzu. Ko'p qatlamlari konlarni ishlatish.

Ko'p qatlamlari konlarni ishlashni loyihalashtirishni ba'zi masalalari. Qaytish obyektlarini ishlashni loyihalashtirish masalalari. Ko'p qatlamlari konlarni ishlatish tizimlari.

12-mavzu. Neft konlarini ishlash holati taxlili.

Ishlash jarayonini kon-geologik nazorat qilish. Neft konlarini ishlash holati taxlili. Ishlatilayotgan obyektdan chiqarilayotgan neft, gaz, suv o'zgarishi (dinamikasi). Kam mahsulotli gorizontni ishlash va tugaguncha ishlash.

13-mavzu. Gaz va gazokondensat konlarini ishga tushirishga tayyorlash.

Tabiiy gazlarning tarkibi va klassifikatsiyasi. Gaz va gazokondensat konlari (uyumlar) tasnifi.

14-mavzu. Gaz va gazokondensat konlarini ishga tushirish.

Gaz konlarini ishlashni loyixalashtirishning o'ziga xosligi. Gaz konini ishlashni loyixalashtirish bosqichlari. Gaz konini ishlash loyixasini asosiy bo'limlari. Konni ishlash va jixozlash tizimlarini asosiy ko'rsatgichlari. Gaz konini ishlash va ishlatish orasidagi aloqa.

15-mavzu. Gazkondensat konlarini ishlash tizimlarini loyixalashtirish asoslari.

Gazkondensat konlari tavsifi. Gazkondensat konlarini ishlash tizimlarini loyixalashtirish asoslari. Uyum so'nish tarzlarida ishanishi shardarining tavsifi. Gazkondensat konlarini qatlam bosimini saqlash bilan ishlashning o'ziga xosligi. Saykling-jarayon.

16-mavzu. Gaz va gazokondensat konlarida bir necha qatlamlami birga ishlatishda obyektlarni ajratish.

Gaz va gazokondensat konlarida bir necha qatlamlami birga ishlatishda obyektlarni ajratish. Gaz va gazokondensat konlarini ishga tushirishning asosiy davrlari. Gaz uyuming kompressorsiz va kompresorli ishlatish davrlari.

17-mavzu. Gaz konlarini ishlatish.

Gaz konlarini ishlatish rejimlari. Gaz konlarini ishga tushirishda quduqlarni joylashtirish. Quduqlarni joylashtirish sistemasining asosiy turlari. Quduqlarni joylashtirish sistemasi turlarining yaxshi va yomon tomonlari. Quduqlarni joylashtirishda suv bosimi rejimining ta'sirini hisobga olish. Gazkondensat konlarida quduqlarni joylashtirish.

18-mavzu. Gaz va gazokondensat konlariidan gaz qazib chiqarishni jadallashtirish.

Gaz va gazzkondensat konlari komponent beraoluvchanligi. Gaz beraoluvchanlik. Kondensat beraoluvchanlik. Komponent beraoluvchanlik. Gazzkondensat beraoluvchanlikni tajriba yo'li bilan aniqlash. Gazzkondensat beraoluvchanlikka ta'sir qiluvchi geologik va texnik faktorlar. Gazzkondensat beraoluvchanlikni oshirish yo'llari. Gazberaoluvchanlikning neft beraoluvchanlikdan farqlari.

19-mavzu. Gidrat hosil bo'lishiga qarshi kurashish.

Gazlarning namlik miqdori. Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlari. Konda gidrat hosil bo'lishini oldini olish.

20-mavzu. Gaz va gazzkondensat konlarini ishlatishda uchraydigan asosiy muammolar.

Quvurlar birikmasi aro gaz o'tishi. Qatlam osti va kontur tashqi suvlari bilan mahsulotning suvlanishi. Quduq tubida tomchi suyuqliklarning paydo bo'lishi. Mahsulot tarkibidagi oltingugurt va boshqa agressiv komponentlar ta'sirida quduq uskunasining yemirilishi. Gaz va gazzkondensat quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari. Qatlam suvlariidan muhofaza qilish - izolyatsiya ishlarini loyihalash. Yoriqli va yoriq g'ovakli qatlamlarga suv oqib kelishini cheklash.

21-mavzu. Gaz konida gaz va kondansatni yig'ish va tayyorlash.

Gaz konlariada gazni yig'ish tizimlari. Gaz konlariada gazni yig'ish va uzatish tizimlari. Gaz yig'ish va taqsimlash punkti.

22-mavzu. Siquv kompressor stansiyalari. Kondagi siquv kompressor stansiyalari.

Kompressor stansiyasi jihozlari va kompressor qurilmasi. Separatorlar. Gaz yig'ichlar. Quvurli uzatmalar.

23-mavzu. Gazni yer ostida saqlash.

Yer osti gaz omborlar. Gaz omborlari vazifasi va sinfi. Yer osti gaz saqlash inshootlarining turlari vazifalari. Yer osti gaz omborida bufer gaz. So'nib borayotgan yoki qisman ishlatib bo'lingan gaz va gaz kondensat konlarda yer ostida gaz saqlash. Ishlatib bo'lingan neft va gaz kondensat konlarda yer ostida gaz saqlash. Suvga to'yingan kollektorda yer ostida gaz saqlash.

2.3. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Neftgaz uyumini boshlang'ich neft zahirasini aniqlash.
2. Neftgaz uyumini ishlash davrida qatlamga kirgan chegara tashqi suvning hajmini aniqlaymiz.
3. Neftgaz uymining gaz do'ppisidagi gaz zaxiralarini va gaz do'ppisining

hajmini o'zgarmasligini ta'minlovchi undan olingen yig'indi gaz hajmini aniqlash.

4. Tarang suv tazyiqli rejimdagi tasmasimon uyumlardan suyuqlik olish miqdorini va quduq tubi bosimini gidrodinamik usulda hisoblash.

5. Chegara ichra suv bostirilayotgan uyumning ishlashda olinayotgan suyuqlikni va quduqlar mahsul miqdorini hisoblash.

6. Tarang suv tazyiqli rejimdagi xalqasimon uyumlardan suyuqlik olish miqdorini va quduq tubi bosimini aniqlash.

7. Xalqasimon uyumdagi quduqlar qatorlarining mahsulot miqtorni hisoblash.

8. Neftgaz uyumini ishlash davrida qatlamga kirgan chegara tashqi suvning hajmini aniqlash.

9. Material balans usulidan zaxiralarini aniqlashda foydalanish.

10. Suv tazyiqli rejimdagi neft uyumlarini ishlish ko'satkichlarini neftni suv bilan siqib chiqarish tavsifi asosida hisoblash.

11. Ishlash ko'satkichlarini loyihalash davrida hisoblash.

12. Ishlash ko'satkichlarini suyuqlik olish sur'ati berilganda hisoblash.

13. Ishlash ko'satkichlarini uyumga haydalayotgan suv hajmi berilganda hisoblash.

14. Ishlash ko'satkichlarini suvli davrda hisoblash.

15. Suv haydash jarayonini loyihalashtirish.

16. Suv haydovchi quduqlar sonini hisoblash.

17. Gaz haydashni loyihalashtirish.

18. Qatlam bosimini ushlab turish uchun kerak bo'ladigan suv miqdori va haydovchi quduqning qabul qiluvchanligini aniqlash.

19. Yer osti gaz omborlarni tashkil etish.

20. Gazni olishda suv bosgan hududning hajmiy gazlanganligini aniqlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruxga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiliishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvoviq.

"Keys- stadi" texnologiyasi ishlataladi keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurulmalari yordamida uzatiladi.

2.4. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

O'quv rejalarida laboratoriya mashg'uloti ko'zda tutilmagan.

<p>2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. O'quv kurs ishi (loyiha) kiritilmagan.</p> <p>2.6. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Neft konlarini ishlash usullari va texnologiyalari. 2. Neft konlarini ishlashni modellashtirish. 3. Neft konlarini tabiiy rejimlarda ishlash. 4. Neft konlarini suv bostirish usullarini qo'llab ishlash. 5. Anomal xossalai neft konlarini ishlash loyihalashtirish. 6. Oqilona ishlash quduqlari to'ri zichligini asoslash. 7. Neft konlarini ishlash texnologik ko'rsatkichlarini iqtisodiy baholash. 8. Neft konlarini ishga tushirish loyiha hujjatlari. 9. Neftgaz uyumlarini ishlashni loyihalashtirish. 10. Ko'p qatlamlari konlarni ishlash. 11. Neft konlarini ishlash holati taxibili. 12. Gaz va gazokondensat konlari (uyumlar) tasnifi. 13. Gaz quduqlarni burg'ilash vaqtida bajariladigan geologik tadqiqotlar. 14. Gaz quduquqlari kesimini o'rghanish bo'yicha olingan geofizik ma'lumotlarni geologik izohlash. 15. Gaz va kondensat zaxiralarini hisoblash. 16. Gaz konlarini ishlashni loyixalashtirishning o'ziga xosligi. 17. Gazzkondensat konlarini ishlash tizimlarini loyixalashtirish asosları. 18. Gaz va gazokondensat konlarda bir necha qatlamlarni birga ishlashda obyektlarni ajratish. 19. Gaz va gazokondensat konlarini ishga tushirishning asosiy davrlari. 20. Gaz konlarini ishlash rejimlari. 21. Gaz konlarini ishga tushirishda quduqlarni joylashtirish. 22. Gaz va gazzkondensat konlari komponent bera oluvchanligi. 23. Gazberaoluvchanlikni oshirish maqsadida quduqlarga kislotali ishlov berish. 24. Gaz va gazzkondensat quduqlarini ishlash sharoitlari va usullari. 25. Gaz va gazokondensat quduqlarini ishlashning texnologik rejimini o'matish. 26. Gaz va gazzkondensat qudug'ining yer osti va yer osti qurilmalari 27. Gidrat hosil bo'lishiga qarshi kurashish 28. Yer osti va yer osti qurilmalarining ichki yuzasi korroziyasiga qarshi kurishish 	<p>29. Gaz va gazzkondensat konlarini ishlashda uchraydigan asosiy muammolar</p> <p>30. Gaz va gazzkondensat quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari</p> <p>31. Gaz koni jihozlari, gaz va kondansatni yig'ish va konda tayyorlash</p> <p>32. Gaz va gazzkondensat konlarini jihozlash loyihasining asosiy tarkibi</p> <p>33. Gaz konlarda gazni yig'ish tizimlari</p> <p>34. Gaz va gazzkondensat konlarda gazni yig'ish va birlamchi tayyorlash texnologik qurilmalari</p> <p>35. Gazzkondensat konlarda birlamchi tayyorlash</p> <p>36. Gaz tarkibidagi og'ir uglevodorodlarni ajratish</p> <p>37. Siquv kompressor stansiyalari</p> <p>38. Kondagi siquv kompressor stansiyalari</p> <p>39. Kompressor stansiyasi jihozlari va kompressor qurilmasi</p> <p>40. Separatorlar</p> <p>41. Yer osti gaz omborlar</p> <p>42. Su'nib borayotgan yoki qisman ishlatib bo'lingan neft, gaz va gaz kondensat konlarda yer ostida gaz saqlash</p> <p>43. Suvga to'yingan kollektorda yer ostida gaz saqlash</p> <p>44. Gaz va gazokondensat konlarda mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilish</p> <p>45. Gazzkondensat konida quduqlarni ishlashda xavfsizlik talablari</p> <p>3. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiylar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • raqamli texnologiyalar tushunchasi va asoslari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillari tasavvur va bilinga ega bo'lishi; • ta'lif yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan avtomatishtirilgan loyihalash tizimlari yordamida masalalarni yechish, modellashtirish, loyihalash xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • talaba dasturlashning mazmun-mohiyatini bilish, iqtisodiyot tarmoqlarida ulardan foydalanish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo'lishi kerak. <p>4. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;
--	---

	<ul style="list-style-type: none"> individual loyihalar; jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>Kreditlarni olish uchun talabalar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'r ganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.</p>
6.	<p>Adabiyotlar</p> <p>6.1. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Agzamov A.X. Neft konlarini ishlash va loyihalashtirish, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, 2005, 283b. Agzamov A.X., Ermatov N.X., Avlayarov N.M., Nomozov B.Yu. Neft konlarini ishlatish. Darslik. Toshkent, "Excellent Polygraphy", 2020. Ermatov N.X., Avlayarov N.M., Azizova D.G', Mo'minov A.T., Ashurov M.X. Gaz, gazokondensat konlarini ishlatish. Darslik. Toshkent, "Excellent Polygraphy", 2020. Maurice I. Stewart. Surface Production Operations. Design of gas-handling systems and facilities. – USA: Gulf professional publishing, 2014. Yuldashev T.R., Akramov B.SH. Qatlamlarning uglevodorod beraolishligini oshirish. – Toshkent: "Voris - nashriyot", 2020. – 524 b. Иванов С.И. Особенности разработки, освоения и эксплуатации газоконденсатных месторождений на завершающей стадии. –М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2005. –247 с. Закиров С.Н., Закиров Э.С. и др. "Новые принципы и технологии разработки месторождений нефть и газа". – М.: 2004. – 520 с. (Часть-1). Закиров С.Н., Закиров Э.С., и др. "Новые принципы и технологии разработки месторождений нефти и газа". – М.: 2009. – 484 с. (Часть-2). <p>6.2. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Абидов А.А., Эргашев Й., Кодиров М. Нефт ва газ геологияси. Русча-ўзбекча изохли лугат. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000, 528 б. Девликамов В.В., Хабибуллин З.А., Кабиров М.М. Аномально-вязкие нефти. –Уфа: Башкирский государственный университет, 1977, 110б. Желтов Ю.П. Разработка нефтяных месторождений: учебник для вузов. –М.: Недра, 1998, 365с. Мищенко И.Т., Кондратюк А.Т. Особенности разработки нефтяных месторождений с трудноизвлекаемыми запасами. – М.: Нефт и газ, 1996, 190 б.

	<p>13. Сидикхўжаев Р.К., Акрамов Б.Ш. Нефт ва газ қатлами физикаси – Т.: ДИТАФ, 1994, 203 б.</p> <p>14. Справочное руководство по проектированию разработки и эксплуатации нефтяных месторождений. Проектирование разработки. Ш.К. Гиматудинов, Ю.П. Борисов, М.Д. Розенберг и др. – М.: Недра, 1983. 463 б.</p> <p>6.3. Axborot manbaalari</p> <p>15. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>16. www.wikipedia.ru</p> <p>17. www.catalogmineralov.ru</p> <p>18. www.sandiegofotki.com</p> <p>19. www.magikbaikal.ru</p> <p>16. www.turism.imd.ru</p>
--	---